

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH VA SUG‘URTA HIMOYASI
MEXANIZMLARINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4069-son qaroriga muvofiq, shuningdek, eksport va eksport oldi moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiliklarini sug‘urtalash mexanizmlarini samarali tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibini o‘rnatish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin, unga muvofiq Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) eksport qiluvchilarga:

(1-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi PF-6091-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.10.2020-y., 06/20/6091/1399-son)

tijorat banklarining eksport oldi kreditlari, shu jumladan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun berilgan kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplashga, milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismida, biroq 10 foizlik punktdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha — tijorat banklari tomonidan belgilangan stavkaning 40 foizi, biroq 4 foizlik punktdan oshmagan miqdorda kompensatsiya taqdim etadi;

tijorat banklarining kreditlari, shu jumladan eksport oldi kreditlari bo‘yicha kredit summasining 50 foizigacha, biroq 4 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik beradi.

Belgilansinki, ushbu bandeda nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrda “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5587-son Farmoni 1-ilovasida ko‘rsatilgan xomashyo tovarlari eksportiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Jamg‘armaning buyurtmanomalari asosida 2019-2020-yillar davomida ushbu bandeda ko‘rsatilgan maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan 50 milliard so‘mgacha miqdorda mablag‘ ajratsin.

2. O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan birgalikda eksport qiluvchi korxonalarini, shu jumladan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kreditlar berish orqali moliyalashtirish turlarini kengaytirsin.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarini 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish mexanizmi joriy qilinsin.

(3-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilansinki, ushbu bandeda nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlash chorasi qo‘shni davlatlarga eksport qilinadigan mahsulotlarga tatbiq etilmaydi, Afg‘oniston Islom Respublikasiga eksport qilinadigan mahsulotlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son)

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) mahsulotni eksportga tashish

xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining mablag‘lari hisobidan subsidiyalar to‘lash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilansin.

Oldingi tahririga qarang.

(4-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son)

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni, shu jumladan, komissioner (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumida hisobot davri yakuni bo‘yicha tayyor mahsulot eksporti ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslarga ularning arizalariga ko‘ra eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo, butlovchi buyumlar va materiallar importida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashni bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab 120 kunga kechiktirish imkoniyati beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasi ikki oy muddatda eksport qiluvchi korxonalariga qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashni kechiktirish imkoniyatini berish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

5. Agentlik zimmasiga ham respublikamizdagi, ham xorijdagi xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarini joriy etish, milliy mahsulotni xorijiy davlatlar vakolatli organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, ko‘rgazma stendlarini tashkil qilish va xalqaro ko‘rgazma-yarmarkalarida ishtirok etish, taqdimotlar va reklama kampaniyalarini o‘tkazish, shu jumladan, an‘anaviy milliy mahsulotlar va brendlarni potensial bozorlarda ilgari surish bo‘yicha eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy ko‘mak berish vazifasi yuklanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Agentlik ikki oy muddatda eksport qiluvchi tashkilotlarga mazkur moliyaviy ko‘makni berish mexanizmini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin, bunda tadbirkorlik subyektlarining xorijiy mamlakatlarda zarur litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar olish, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imlari hamda xalqaro tendyerlar va tanlovlarda ishtirok etish bilan bog‘liq boshqa to‘lov xarajatlarining bir qismini to‘lashni nazarda tutsin.

6. Belgilansinki, 2019-yil 1-iyundan boshlab tirik holdagi tovuq, quyon va baliq hamda ularni so‘yib ishlangan mahsulotlar eksporti uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi ruxsati talab qilinmaydi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda — “O‘zbekinvest” EIMSK) direktorlar Kengashining:

“O‘zbekinvest” EIMSKning ustav kapitalini kompaniyaning o‘z kapitali hisobiga 221,6 mlrd so‘mgacha ko‘paytirish;

“O‘zbekinvest” EIMSK tuzilmasida eksportoldi va eksport sug‘urtasi masalalari bo‘yicha bosh direktorning birinchi o‘rinbosari lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

8. Belgilansinki:

“O‘zbekinvest” EIMSKning eksportni sug‘urtalash orqali qo‘llab-quvvatlash xizmatlari kompleksi xaridor kreditini, qisqa muddatli debitor qarzdorlikni, mahsulot yetkazib beruvchi kreditini, tasdiqlangan akkreditivni, eksport qiluvchining aylanma mablag‘larini to‘ldirish kreditini, eksport faktoringini sug‘urtalashni hamda eksportni sug‘urtalash orqali qo‘llab-quvvatlashning boshqa vositalarini o‘z ichiga oladi;

moliya yilida eksport kontraktlari va kreditlarini sug‘urtalashning barcha shartnomalari bo‘yicha (xomashyo bo‘lmagan mahsulot eksporti qismida) sug‘urta tovon to‘lashning umumiy hajmi “O‘zbekinvest” EIMSK o‘z kapitalining 10 foizidan oshib ketgan taqdirda, “O‘zbekinvest” EIMSK o‘z kapitalining 10 foizidan oshib ketgan miqdordagi yo‘qotishlari uning ustav jamg‘armasini oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilinadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi:

ikki oy muddatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda “O‘zbekinvest” EIMSK faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida tegishli hukumat qarori loyihasining belgilangan tartibda ishlab chiqilishi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini;

bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Transport vazirligi bilan birgalikda xabar berilganlik fakti qayd etilishini ta‘minlaydigan axborot tizimlaridan foydalangan holda, buyurtmanomalarni, shu jumladan 2019-yil 1-maydan buyon amalga oshirilgan mahsulot eksporti bo‘yicha qabul qilish va ko‘rib chiqish mexanizmini nazarda tutadigan, mahsulot olib boriladigan mamlakat va subsidiya taqdim etishning eng ko‘p muddatidan kelib chiqib, Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishni;

2019-yil 1-avgustga qadar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi va Agentlik mablag‘lari hisobidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat xizmatlarining interaktiv shaklda taqdim etilishini, shuningdek, davlat tili, rus tili va boshqa xorijiy tillarda batafsil ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydigan, elektron savdo maydonchalari hamda manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan Tashqi iqtisodiy ma‘lumotlar portalini yaratish va ishga tushirishni;

bir oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Tashqi iqtisodiy ma‘lumotlar portalini yuritish va mas‘ul idoralar tomonidan Portalga tegishli ma‘lumotlar o‘z vaqtida kiritilishi ustidan monitoringni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanishini;

bir oy muddatda “O‘zagroeksportbank” ATB negizida eksport va importni moliyalashtirish bo‘yicha ixtisoslashgan bank tashkil etish yuzasidan taklif kiritilishini ta‘minlasin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda “Uzbekistan airways” AJ va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning eksport yuklarini tashish tariflarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3978-son qarorining 6 va 7-bandlari, 14-bandining **yettinchi xatboshi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ikki oy muddatda manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari J.A. Qo‘chqorov va E.M. G‘aniyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 24-may,
PQ-4337-son

Oldingi tahrirga qarang.

(ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son)

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2019-y., 07/19/4337/3182-son, 12.12.2019-y., 07/19/4549/4143-son; 30.01.2020-y., 07/20/4576/0091-son, 07.05.2020-y., 07/20/4707/0545-son, 22.10.2020-y., 06/20/6091/1399-son)

ПОСТАНОВЛЕНИЕ
ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**О МЕРАХ ПО РАСШИРЕНИЮ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ И
СТРАХОВОЙ ЗАЩИТЫ ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

В соответствии с [постановлением](#) Президента Республики Узбекистан от 20 декабря 2018 года № ПП-4069 «О мерах по усилению содействия и стимулирования экспорта», а также в целях создания необходимых условий для эффективного внедрения механизмов экспортного и предэкспортного финансирования, страхования экспортных кредитов и рисков:

См. предыдущую редакцию.

1. Согласиться с предложениями Министерства инвестиций и внешней торговли, Министерства финансов и Министерства экономики и промышленности Республики Узбекистан об установлении порядка государственной поддержки экспортеров, в соответствии с которым Государственный фонд поддержки предпринимательской деятельности (далее — Фонд) предоставляет экспортерам:

(абзац первый пункта 1 в редакции Указа Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2020 года № УП-6091 — Национальная база данных законодательства, 22.10.2020 г., № 06/20/6091/1399)

компенсации на покрытие процентных расходов по предэкспортным кредитам коммерческих банков, в том числе выданным для пополнения оборотных средств, до ставки рефинансирования Центрального банка Республики Узбекистан, но не более 10 процентных пунктов по кредитам в национальной валюте, и в размере 40 процентов от установленной коммерческими банками ставки, но не более 4 процентных пунктов — по кредитам в иностранной валюте;

поручительства по кредитам коммерческих банков в размере до 50 процентов включительно от суммы предэкспортного кредита, но не более чем на 4 миллиарда сумов.

Определить, что меры поддержки, предусмотренные настоящим пунктом, не распространяются на экспорт сырьевых товаров, указанных в [приложении № 1](#) к Указу Президента Республики Узбекистан от 29 ноября 2018 года № УП-5587 «О мерах по дальнейшему стимулированию экспортного потенциала отечественных производителей».

Министерству финансов Республики Узбекистан на основе заявок Фонда выделить в течение 2019-2020 годов средства из Государственного бюджета Республики Узбекистан в размере до 50 млрд. сумов на цели, указанные в настоящем пункте.

2. Ассоциации банков Узбекистана совместно с коммерческими банками расширить виды финансирования предприятий-экспортеров, в том числе посредством предоставления кредитов для пополнения оборотных средств.

См. предыдущую редакцию.

3. Внедрить механизм предоставления отечественным предприятиям-экспортерам (их уполномоченным представителям) субсидий на компенсацию до 50 процентов затрат на транспортировку автомобильным, железнодорожным и воздушным транспортом.

(абзац первый пункта 3 в редакции постановления Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707 — Национальная база данных законодательства, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545)

См. предыдущую редакцию.

Установить, что мера поддержки, предусмотренная настоящим пунктом, не применяется на экспорт продукции в сопредельные государства, за исключением экспорта продукции в Исламскую Республику Афганистан и иных случаев, предусмотренных законодательством.

(абзац второй пункта 3 в редакции постановления Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707 — Национальная база данных законодательства, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545)

Определить Агентство продвижения экспорта при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан (далее — Агентство) уполномоченным органом по выплате субсидий за счет средств Государственного бюджета Республики Узбекистан по компенсации части затрат на транспортировку продукции на экспорт.

См. предыдущую редакцию.

(абзац четвертый пункта 3 исключен постановлением Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707 — Национальная база данных законодательства, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545)

4. Установить порядок, в соответствии с которым юридическим лицам, имеющим долю экспорта готовой продукции в общей выручке от реализации товаров (работ, услуг) более 50 процентов по итогам отчетного периода, в том числе через комиссионера (поверенного), по их заявлениям предоставляется отсрочка по уплате налога на добавленную стоимость сроком до 120 дней со дня принятия таможенной декларации при импорте сырья, комплектующих изделий и материалов, используемых при производстве экспортируемой продукции.

Министерству финансов, Государственному таможенному комитету и Государственному налоговому комитету Республики Узбекистан в двухмесячный срок разработать и утвердить порядок предоставления отсрочки по уплате налога на добавленную стоимость предприятиям-экспортерам.

5. Принять к сведению, что на Агентство возложены задачи по оказанию финансового содействия организациям-экспортерам во внедрении международных систем стандартизации и сертификации как в республике, так и за рубежом, регистрации национальной продукции в уполномоченных органах зарубежных стран, а также создании выставочных стендов и участия в международных выставках-ярмарках, проведении презентаций и рекламных кампаний, в том числе в части продвижения традиционных национальных продуктов и брендов на потенциальные рынки сбыта.

Агентству в двухмесячный срок разработать и внести на утверждение в Кабинет Министров механизм оказания указанного финансового содействия организациям-экспортерам, предусмотрев оплату части затрат на получение необходимых лицензий, разрешений, сертификатов в зарубежных странах, а также регистрационных сборов и других платежей, связанных с участием субъектов предпринимательства в международных тендерах и конкурсах.

6. Установить, что с 1 июня 2019 года для экспорта кур, кроликов и рыбы в живом виде и продуктов их убоя не требуется разрешение Президента Республики Узбекистан или Правительства Республики Узбекистан.

7. Одобрить предложения Министерства инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан и Совета директоров Национальной компании экспортно-импортного страхования «Узбекинвест» (далее — НКЭИС «Узбекинвест») о:

увеличении уставного капитала НКЭИС «Узбекинвест» до 221,6 млрд. сумов за счет собственного капитала компании;

введении в структуру НКЭИС «Узбекинвест» должности первого заместителя генерального директора по вопросам предэкспортного и экспортного страхования.

8. Установить, что:

комплекс услуг НКЭИС «Узбекинвест» по страховой поддержке экспорта включает страхование кредита покупателю, краткосрочной дебиторской задолженности, кредита поставщика, подтвержденного аккредитива, кредита на пополнение оборотных средств экспортера, экспортного факторинга и другие инструменты страховой поддержки экспорта;

в случае превышения общего объема страхового возмещения по всем договорам страхования экспортных контрактов и кредитов (в части экспорта несырьевой продукции) за финансовый год 10 процентов собственного капитала НКЭИС «Узбекинвест», потери компании в сумме, превышающей 10 процентов собственного капитала, компенсируются за

счет средств Государственного бюджета Республики Узбекистан путем увеличения ее уставного капитала.

9. Министерству инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан обеспечить:

совместно с Агентством по управлению государственными активами в двухмесячный срок в установленном порядке разработку и внесение в Кабинет Министров соответствующего проекта правительственного решения о дальнейшем совершенствовании деятельности НКЭИС «Узбекинвест»;

совместно с Министерством финансов и Министерством транспорта Республики Узбекистан в месячный срок внесение на утверждение в Кабинет Министров Положения о порядке компенсации затрат на транспортировку при экспорте продукции за счет средств Государственного бюджета Республики Узбекистан в зависимости от страны назначения и предельного срока, на который предоставляются субсидии, предусмотрев механизм приема и рассмотрения заявок с использованием информационных систем, обеспечивающих фиксирование факта извещения, в том числе по экспортным поставкам, осуществленным с 1 мая 2019 года;

в срок до 1 августа 2019 года создание и запуск за счет средств Фонда развития информационно-коммуникационных технологий и Агентства Портала внешнеэкономической информации, интегрированного с электронными торговыми площадками, информационными системами заинтересованных министерств и ведомств, обеспечивающего предоставление государственных услуг в сфере внешнеэкономической деятельности в интерактивной форме, а также доступ к развернутой информации на государственном, русском и других иностранных языках;

совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами утверждение в месячный срок Положения о порядке ведения Портала внешнеэкономической информации и осуществления мониторинга за своевременным внесением данных в Портал ответственными ведомствами;

в месячный срок внесение предложения по созданию на базе АКБ «Узагроэкспортбанк» специализированного банка по экспортно-импортному финансированию.

10. Министерству транспорта совместно с Антимонопольным комитетом Республики Узбекистан в месячный срок критически пересмотреть тарифы АО «Uzbekistanairways» и АО «Узбекистонтемирийуллари» на перевозку экспортных грузов.

11. **Пункты 6 и 7, абзац седьмой** пункта 14 постановления Президента Республики Узбекистан от 17 октября 2018 года № ПП-3978 «О дополнительных мерах по повышению эффективности продвижения плодоовощной продукции на внешние рынки» признать утратившими силу.

12. Министерству инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан в двухмесячный срок совместно с заинтересованными министерствами, ведомствами и организациями внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего постановления.

13. Контроль за исполнением настоящего постановления возложить на Премьер-министра Республики Узбекистан А.Н. Арипова и заместителей Премьер-министра Республики Узбекистан Д.А. Кучкарова и Э.М. Ганиева.

Президент Республики Узбекистан Ш. МИРЗИЁЕВ

г. Ташкент,
24 мая 2019 г.,
№ ПП-4337

См. предыдущую редакцию.

(приложение утратило силу постановлением Президента Республики Узбекистан от 7 мая 2020 года № ПП-4707 — Национальная база данных законодательства, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545)

(Национальная база данных законодательства, 25.05.2019 г., № 07/19/4337/3182, 12.12.2019 г., № 07/19/4549/4143; 30.01.2020 г., № 07/20/4576/0091, 07.05.2020 г., № 07/20/4707/0545, 22.10.2020 г., № 06/20/6091/1399)